

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHAGILOVA GULXATISHA KOPTLEUOVNA**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTRON HUKUMATNI**  
**SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH**  
**ISTIQBOLLARI**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Nukus shahri – 2024**

**Doktorlik dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shagilova Gulxatisha Koptleuovna**

Qoraqalpog‘iston Respublikasida elektron hukumatni shakllantirishning huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari ..... 3

**Шагилова Гулхатиша Коптлеуовна**

Правовые основы формирования и перспективы развития электронного правительства в Республике Каракалпакстан ..... 21

**Shagilova Gulxatisha Koptleuovna**

Legal basis for the formation and prospects for the development of electronic government in the Republic of Karakalpakstan ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHAGILOVA GULXATISHA KOPTLEUOVNA**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTRON HUKUMATNI  
SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus shahri – 2024**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu853 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://karsu.uz/uz/автореферат/>) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Kutibaeva Yelizaveta Duysenbaevna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Ro'zmetov Xayrullo Ibadullaevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Kabulov Xojabay Aldashovich**  
yuridik fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02-raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "19" aprel kuni soat 14.00 daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 167 raqami bilan ro'yxatga olingan (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "5" aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil "5" aprel daqi 2 -raqamli reestr bayonnomasi).



**LT. Tulteev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi  
yuridik fanlar doktori, professor

**G.M. Berdimuratova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kombi yuridik fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD) dotsent

**Z.A. Reymova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda boshqaruvning samaradorligini oshirish, shaffoflik va fuqarolarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytirish uchun elektron hukumat (e-Government) tizimi va davlat xizmatlarini ko'rsatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan internetdan foydalanish kengaymoqda. Buyuk Britaniya (gov.UK), Singapur (Smart Nation), Estoniya (e-Residency), Janubiy Koreya (gov.kr) kabi mamlakatlar davlat xizmatlarini raqamlashtirishga kompleks yondashish va fuqarolarni raqamli hayotga faol jalb etishi orqali elektron hukumatni rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishgan. Ushbu yangiliklarning joriy etilishining asosiy maqsadi fuqarolarning davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlarini soddalashtirish, davlat xizmatlarining samaradorligi va foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, byurokratik to'siqlar va korruptsiyani kamaytirishga qaratilgan.

Dunyo mamlakatlarida davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi markazlashtirilgan portallarni o'rganish va rivojlantirishga, shuningdek, fuqarolarga davlat idoralariga tashrif buyurmasdan ariza berish, biznesni ro'yxatdan o'tkazish, soliq to'lash va boshqa tadbirlarni onlayn tarzda amalga oshirish imkonini beradigan xizmatlarni joriy etishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Masofadan turib oldindan to'ldirilgan ma'lumotlardan foydalangan holda davlat xizmatlarini ko'rsatishning, davlat operatsiyalarining shaffofligi va xavfsizligini oshirish uchun blokcheyn texnologiyasini qo'llash, hukumat portali orqali soliq deklaratsiyalari, ijtimoiy ta'minot va elektron ovoz berish, sun'iy intellekt va bazalardan foydalanish kabi ko'plab onlayn xizmatlarni amalga oshirish davlat boshqaruvini yaxshilash va fuqarolarga shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etishning dolzarb masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimini joriy etish bo'yicha ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda, ular davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish maqsadida islohotlarning eng muhim yo'nalishi, shuningdek, davlat, biznes tuzilmalari, aholi va fuqarolik jamiyati tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirish usuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni<sup>1</sup>da elektron davlat xizmatlari ko'rsatishni yanada takomillashtirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatidagi funksional jarayonlar va tartib-taomillarni doimiy monitoringi asosida davlat xizmatlari optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish vazifasi ko'rsatilgan".

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-son Farmoni \ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son; 31.10.2020 y., 06/20/6099/1450-son; 02.04.2021 y., 06/21/6198/0269-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.07.2021 y., 06/21/6261/0667-son, 12.08.2021 y., 06/21/6277/0788-son, 26.08.2021 y., 07/21/5234/0826-son, 26.08.2021 y., 07/21/5234/0826-son, 30.11.2021 y., 06/21/26/1111-son, 29.01.2022 y., 06/22/61/0084-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son, 23.08.2022 y., 06/22/194/0766-son; 25.05.2023 y., 06/23/76/0296-son; 13.06.2023 y., 06/23/92/0366-son; 07.07.2023 y., 06/23/108/0460-son; 11.11.2023 y., 06/23/193/0844-son

Ushbu dissertatsiya ma'lum darajada O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida", "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida", "Elektron raqamli imzo to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida", "Elektron tijorat to'g'risida", "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi qonunlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6079 raqamli va 2017-yil 8-sentabrdagi 5185-son "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy islohotlari konsepsiyasi" , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" PF-60-son 2023 yil 11 sentabrdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PF-158-son Farmonlarini muayyan darajada ro'yobga chiqarilishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasida O. Xusanov<sup>1</sup>, M. Axmedshaeva, A. Hoshimxonov, I. Tulteev, A. Xamedov, Ye. Xodjiev, A. Raxmonov, H. Ruzmetov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etishning umumiy huquqiy asoslari yoritilgan.

Respublikamiz olimlarning elektron hukumatni shakllantirish va rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlari orasida S. Sadikov, S. Selimanova, S. Adilxodjaeva, F. Muxitdinova, S. Amaniyazovalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Davlat organlari faoliyatida AKTdan foydalanishning huquqiy jihatlari, xususan, M. Axmedshaeva, B. Jo'raev, H. Mamatovlar tomonidan o'rganilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ijro hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari bilan bog'liq masalalar qoraqalpog'istonlik olimlar tomonidan o'rganilgan, xususan, E. Kutibaeva asarlarida respublika ijro hokimiyati tizimi va vakolatlari ko'rib chiqilgan. S. Allambergenov, J. Ermashevlar respublikaning ham oliy, ham mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi va vakolatlarini o'rgandilar. Biroq mazkur olimlarning tadqiqotlari ijro hokimiyati organlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning huquqiy asoslari, elektron hukumatni shakllantirish va rivojlantirish masalalarini qamrab ololmadi.

Elektron hukumatni rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy masalalari MDH mamlakatlari olimlari N. Danilova, E. Inshakova, E. Talapina, T. Xabrieva, N. Kovaleva, A. Yurtaev, A. Nagaeva, O. Yakimova, E. Petrova, A. Grigoryeva, I. Boychenko, N. Teleshina, I. Quldiboeva, N. Esjanovalarning ilmiy ishlarida umumiy nazariy jihatdan, bu mamlakatlar qonunchiligi nuqtai nazaridan o'rganilgan.

---

<sup>1</sup> Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar qismida keltirilgan

Elektron hukumat doktrinasi xorijiy olimlar, xususan, V. Dattona, V. Kutrakou, M. Lipsa, B. Loader, Dj. Morisona, B. Xaga, D. Xolmsa, A. Anttiroiko, M. Malkiya, R. Savolaynen, P. Niksona, R. Ravalya, V. Xomburga, A. Edvardsa asarlarida ishlab chiqilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq «Davlat boshqaruvi va axborot jamiyatining barcha sohalarini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'llari» mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumatni shakllantirishning huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

elektron hukumat kontseptsiyasini, shuningdek global rivojlanish tendentsiyalarini o'rganish;

elektron hukumatning huquqiy mazmunini aniqlash, uni huquqiy tartibga solishning asosiy jihatlarini aniqlash;

elektron hukumatni joriy etish jarayoni subyektlari o'rtasidagi idoralararo munosabatlarning huquqiy asoslarini tahlil qilish;

Qoraqalpog'iston ijro hokimiyati organlarining idoralararo elektron hamkorligining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

elektron hukumatni joriy etish bo'yicha xorijiy davlatlarning qonun hujjatlarini tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumatni shakllantirish va rivojlantirish sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar va ularni qo'llash amaliyoti tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-huquqiy, mantiqiy-tizimli, sotsiologik usul, umumlashtirish, kuzatish, statistik va boshqa usullardan foydalanilgan. Bundan tashqari, tadqiqotda sotsiologik usul, umumlashtirish usullari va kuzatishlar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

elektron hukumat tizimini joriy etish orqali davlat apparatining ochiqligini ta'minlash davlat boshqaruvi samaradorligini kuchaytirishga, aholining ishonchi va roziligi darajasini oshirishga, korrupsiya xavfini kamaytirishga, davlat xizmatlarini ko'rsatishning shaffofligi va monitoringini olib borish imkoniyatini oshirishga xizmat qilishi asoslantirilgan;

davlat xizmatlari markazining huquqiy maqomini mustahkamlash, axborot oqimlaridan foydalanishni osonlashtirish va davlat xizmatlarini olish qulayligi davlat boshqaruvi jarayonlarini optimallashtirish imkonini beruvchi hokimiyat organlari va aholi o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishning hal qiluvchi tarkibiy qismi ekanligi asoslantirilgan;

qonuniylik, javobgarlik va samaradorlik prinsiplarini huquqiy mustahkamlash fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi ishonchli, shaffof va qulay elektron hukumat tizimini yaratish yo'lidagi fundamental qadam ekani asoslantirilgan;

elektron hukumat infratuzilmasiga uning samaradorligini oshirish va fuqarolarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, mamlakat raqamli iqtisodiyotini yanada rivojlantirish bo'yicha strategik muhim qadam sifatida mobil tizimlar va idoralararo integratsiya platformalarini kiritish zarurligi asoslantirilgan;

huquqiy xatarlarni tahlil qilishga va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga qodir bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash zarurligi, ular o'z navbatida davlat boshqaruvining shaffofligi va ochiqligini oshirishga, shuningdek aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilashga, axborot jamiyatini rivojlantirishga, fuqarolarning hayot sifatini oshirishga va huquqiy davlatni mustahkamlashga yordam berishi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

elektron hukumat tizimi mazmunini tahlil qilish natijasida "elektron hukumat" tushunchasining mualliflik talqini berilgan;

davlat xizmatlari ko'rsatishda yuzaga keladigan munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi "Davlat xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunini qabul qilish to'g'risidagi taklifi ishlab chiqilgan;

"Qoraqalpog'iston Respublikasi elektron hukumati" integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish, respublika davlat hokimiyati organlarida avtomatlashtirilgan elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish zarurligi asoslab berilgan;

davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasida fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarning yagona nuqtasini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining yagona domen nomi ostida hukumat portalini (gov.uz) va yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini (my.gov.uz) birlashtirish asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi takliflar ishlab chiqildi va joriy qilindi:

elektron hukumat tizimini joriy etish orqali davlat apparatining ochiqligini ta'minlash davlat boshqaruvi samaradorligini kuchaytirish, aholining ishonchi va roziligi darajasini oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishning shaffofligi va monitoringini olib borish imkoniyatini oshirish zarurligi to'g'risidagi taklif Qoraqalpog'iston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonunini qabul qilishda qo'llanilgan (*Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Mahalliy hokimiyatning vakillikli va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining ochiqligini ta'minlash masalalari qo'mitasining 2022-yil 15-*

noyabrdagi 19-684/1-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashning huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi.

davlat xizmatlari markazining huquqiy maqomini mustahkamlash, axborot oqimlaridan foydalanishni osonlashtirish va davlat xizmatlarini olish qulayligi davlat boshqaruvi jarayonlarini optimallashtirish imkonini beruvchi hokimiyat organlari va aholi o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishning hal qiluvchi tarkibiy qismi ekanligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda O'RQ-395-sonli «Elektron hukumat to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasiga o'zgartirishlar tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2023-yil 11-maydagi 04/10-10-34-son dalolatnomasi*). Ushbu taklif davlat xizmatlari markazining davlat xizmatlarini korsatadigan vakolatli organ sifatida huquqiy maqomini mustahkamlagan;

qonuniylik, javobgarlik va samaradorlik prinsiplarini huquqiy mustahkamlash fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi ishonchli, shaffof va qulay elektron hukumat tizimini yaratish yo'lidagi fundamental qadam ekanligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda O'RQ-395-sonli «Elektron hukumat to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasiga o'zgartirishlar tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2023-yil 11-maydagi 04/10-10-34-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning huquqiy mustahkamlanishi ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat xizmatlarini ko'rsatish faoliyati samaradorligini oshirishga, ularning davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga, mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun javobgarligini oshirishga, fuqarolarning ehtiyojlariga javob beradi;

elektron hukumat infratuzilmasiga uning samaradorligini oshirish va fuqarolarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, mamlakat raqamli iqtisodiyotini yanada rivojlantirish bo'yicha strategik muhim qadam sifatida mobil tizimlar va idoralararo integratsiya platformalarini kiritish zarurligi to'g'risidagi taklif «O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda O'RQ-395-sonli «Elektron hukumat to'g'risida»gi Qonunining 25-moddasiga o'zgartirishlar tayyorlashda ishlatilgan. (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2023-yil 11-maydagi 04/10-10-34-son dalolatnomasi*). Ushbu taklif davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida davlat organlarining o'zaro, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro aloqasining elektron shakllarining yuridik ahamiyatini, ishonchliligini ta'minlaydigan yagona texnologik infratuzilmani shakllantirishga xizmat qiladi.

elektron hukumatni rivojlantirish va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning huquqiy asoslarini o'rgatish zarurligi bakalavr va magistrlar o'rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron hukumat sohasida nazariy-huquqiy bilimlari shakllanishiga xizmat qilishi to'g'risidagi taklifdan «Davlat xizmatlarini ko'rsatishda Qoraqalpog'iston

Respublikasi davlat organlarining idoralararo elektron hamkorligi» o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 2023-yil 25-sentyabrdagi 01-21-04/1733-son dalolatnoma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i*). O‘quv qo‘llanmadan foydalanish 60420100 - «Huquqshunoslik» yo‘nalishi talabalari va 5A240101-«Davlat huquqi va boshqaruvi (faoliyat turlari bo‘yicha)» yo‘nalishi magistrantlarining O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida elektron hukumatni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha nazariy va huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining «Inson huquqlari, davlat huquqi va boshqaruv» kafedrasida, shuningdek, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari hamda davra suhbatlarida aprotatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ishlar, jumladan, 1 monografiya, 8 ta maqola (3 ta maqola xorijiy jurnalda), 7 ta tezis, hammualliflikda 1 ta o‘quv qo‘llanma tayyorlangan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, sakkiz paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 152 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflanib, ularning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

«O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida elektron hukumatni shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari» deb nomlangan birinchi bobda elektron hukumatning turli tushunchalari tahlil qilingan, elektron hukumat rivojlanishining global tendentsiyalari tahlil qilinib, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalarida elektron hukumatni joriy etish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Elektron hukumatni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlarini o‘rganish, elektron hukumatni rivojlantirish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirgan ilg‘or davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, nazariy asoslarni ishlab chiqish, ushbu hodisaga ilmiy qarashlarni shakllantirish o‘tgan asrning 60-80-yillarida boshlangan. 1970-yillarning o‘rtalaridan boshlab zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va axborot almashinuvi sohasida yanada teng huquqli munosabatlarni yaratish bo‘yicha tashabbuslar paydo bo‘la boshladi.

Muallifning ta’kidlashicha, axborot jamiyati fenomenining mohiyati va mazmuni amerikalik sotsiolog D. Bell tomonidan «Kelayotgan postindustrial jamiyat.

Ijtimoiy prognozlash tajribasi»<sup>1</sup> ilmiy ishida Bell birinchi marta postindustrial jamiyatni telekommunikatsiyalarga asoslangan axborot jamiyati sifatida tavsiflagan, unda bilim va ma'lumotlar tovar maqomiga ega bo'ladi.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi va qo'llanilishi, axborot almashinuvining tezligi, qulayligi va iqtisodiy samaradorligi zamonaviy davlatlarning siyosiy rahbarlarini AKTni jamiyat sohasida faol qo'llash va ulardan foydalanishga undadi. Aynan shunday sharoitda AKTni hokimiyat munosabatlariga joriy etish jarayonlarini aks ettirishning asosiy jihatlaridan biri bo'lgan «elektron hukumat» tushunchasi paydo bo'ldi.

Tadqiqotchining fikricha, elektron hukumat tushunchasini davlat organlari, fuqarolar, tashkilotlar bilan elektron shaklda minimal shaxsiy (jismoniy) o'zaro ta'sir ko'rsatadigan hukumat deb tushunish kerak. Elektron hukumat o'zining xususiyatlariga ko'ra elektron hujjat aylanishi tizimlarini maksimal darajada joriy etishni, davlat boshqaruvini avtomatlashtirishni va boshqa axborot sxemalarini nazarda tutadi. Hukumati bunday xizmatlarni taklif qiladigan davlat fuqarolari uchun elektron hukumatning asosiy tashqi ko'rinishlari elektron davlat xizmatlari, internetdan foydalangan holda davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga kirish, shuningdek fuqarolarning boshqaruv tizimini ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirokini ta'minlaydigan axborot resurslari hisoblanadi.

Tadqiqot ishida ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida «elektron hukumat»ning mohiyati, huquqiy asoslari va uni rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan. Bir qator olimlar (F.Muxitdinova, S.Sadikov, S.Jo'raev, N.A.Xramtsovskaya, D.Bell, M.S. Vershinin, L.V.Prixodko, S.Amaniyazova) fikrlarini inobatga olgan holda elektron hukumat tushunchasining umumlashtirilgan talqini ishlab chiqilgan, shuningdek elektron hukumatning dolzarb masalalari va AKTning siyosiy boshqaruvga ta'sirining turli jihatlarini o'rganilgan.

Elektron hukumat konseptsiyasini tahlil qilish asosida muallif elektron hukumatga quyidagi ta'rifni beradi: «elektron hukumat» – bu axborot texnologiyalaridan foydalangan holda davlat boshqaruvi organlari tomonidan axborot bilan ta'minlash va davlat xizmatlarini ko'rsatish usullari majmui».

Dissertatsiyaning ushbu bobida muallif elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha milliy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan xorijiy davlatlar tajribasini (Daniya, Qozog'iston va Belorussiya) o'rganib chiqqan. Bundan tashqari, muallif xorijiy tajribani ikki jihatdan, ya'ni: birinchidan, elektron hukumatni rivojlantirish va shakllantirish bosqichlari nuqtai nazaridan; ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarda elektron hukumatni tartibga solish jarayonlarini tahlil qilgan.

Muallif 2001 yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib «elektron hukumat» loyihasini amalga oshirishni boshlagan Daniya tajribasiga alohida e'tibor qaratadi, bunda Daniya davlat boshqaruvini o'zgartirish loyihasini amalga oshirishda yetakchi davlat sifatidagi tajribasini o'rganish, ya'ni «elektron

---

<sup>1</sup> Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. A Venture in Social Forecasting. N.Y., Basic Books, Inc., 1973. Русский перевод этой книги под редакцией В.Л.Иноземцева вышел в свет в 1999 году.

hukumat”ning raqamli modeliga o‘tishi O‘zbekiston Respublikasida amaliy qo‘llanilishi nuqtai nazaridan juda muhim ko‘rinadi.

Qozog‘iston elektron hukumat rivojlanishining to‘rt davrini boshdan kechirdi: elektron hukumat infratuzilmasini yaratish, elektron hukumatni yagona platformaga birlashtirish, interaktiv elektron hukumat, ochiq elektron hukumat. Oxirgi bosqich ochiq hukumat va ochiq ma'lumotlar kabi tushunchalarni ilgari surish uchun yangi platformalarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi, ular hozirda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida faol amalga oshirilmoqda, bu esa fuqarolik ishtiroki va faolligini nazarda tutadi. Ular har qanday zamonaviy elektron hukumat loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning ikkita asosiy komponentidir.

Belorussiyaning elektron hukumatni joriy etish tajribasini o‘rganar ekan, muallif mamlakat raqamli va elektron rivojlanish yo‘nalishida katta sakrashni amalga oshirganini ta’kidlaydi, bu tajriba boshqa mamlakatlar uchun albatta qiziq. Mamlakatda tasdiqlangan «2021–2025-yillarda Belorussiyani raqamli rivojlantirish» dasturi elektron hukumat texnologiyalarini rivojlantirish, xususan, raqamli xizmatlarni modernizatsiya qilish va yangilarini yaratishga qaratilgan.

Umuman olganda, elektron hukumatni joriy etishning xorijiy tajribasi ushbu sohada samarali strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun qimmatli ma'lumot va ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Ushbu tajribani o‘rganish O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga davlat boshqaruvi jarayonlarini optimallashtirish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishni yaxshilash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari bilan faol hamkorlikni ta’minlash imkonini beradi.

Muallif O‘zbekiston Respublikasida elektron hukumatni rivojlantirish tajribasini o‘rganar ekan, har bir bosqichning rivojlanish xarakteri va xususiyatlarini hisobga olgan holda uni besh bosqichga ajratib ko‘rsatadi.

Tadqiqotchining xulosasiga ko‘ra, elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, strategiya va kontseptsiyalarni ishlab chiqish bilan birga, O‘zbekistonning har bir mintaqasi, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun alohida yo‘l xaritasini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, mintaqaning imkoniyatlarini, infratuzilmasini, aholining raqamli savodxonligini hisobga olish kerakligini takidlab o‘tgan.

Ikkinchi bob **«O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida elektron hukumatni shakllantirish va joriy etishning huquqiy jihatlari»** deb nomlanib, uchta paragrafdan iborat.

Ushbu bobda O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida elektron hukumatni shakllantirish va rivojlantirishni tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy asoslar tahlil qilingan. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida elektron hukumatning ayrim jihatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida «elektron hukumat»ni shakllantirish va faoliyatining huquqiy asoslari jamiyat manfaatlarini ta’minlaydigan va tegishli boshqaruv munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardir. Ular turli normativ hujjatlarda, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning farmonlarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarorlarida, vazirliklar va idoralarning hujjatlarida belgilangan huquqiy normalar majmuini ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida muallif mamlakatda sodir bo‘layotgan jarayonlar elektron hukumatni huquqiy tartibga solishga kompleks yondashuvni ishlab chiqishni talab qilishini ta’kidlaydi.

Shunday qilib, muallif bir qator olimlarning davlat xizmatlari va elektron hukumat kontseptsiyasining qonuniy mustahkamlanishini takomillashtirish zarurligi haqidagi fikrlariga qo‘shiladi. Shu bilan birga, muallif O‘zbekistonda davlat xizmatlarini tushunish juda tor va ushbu tushuncha mazmuniga mos kelmasligini ta’kidlaydi. Xorijiy mamlakatlarda davlat xizmatlari haqida gap ketganda, biz «ommaviy xizmatlar» deb ataladigan narsani nazarda tutamiz, ular orasida eng muhimi sog‘liqni saqlash, ta’lim, kommunal xizmatlar va bandlikka ko‘maklashishdir.

Muallif tomonidan O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda davlat xizmatlari ko‘proq ma’muriy xizmatlar sifatida tushuniladi, degan tezis asoslab berilgan. Ta’kidlanganki, davlat xizmati deganda nafaqat har qanday hujjatlar yoki ruxsatnomalar berish, balki, birinchi navbatda, ushbu hujjatlar yordamida olingan tasdiqlangan yoki belgilangan huquq tushunilishi asoslantirilgan.

Tadqiqotchi tomonidan «Davlat xizmatlari ko‘rsatishni tashkil etish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish zarurligi to‘g‘risidagi taklif ilgari surilib, «ommaviy xizmatlar» deb ataladigan davlat xizmatlari va elektron hukumat tushunchalarini qonunchilikda mustahkamlash zarurligi asoslab berilgan.

Elektron hukumatni turli darajalarda amalga oshirish jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslarini o‘rganayotganda, tadqiqotchi ishtirokchilarning o‘zaro ta’siri juda muhim bo‘lgan bir necha asosiy sabablarini ko‘rib chiqadi.

Ulardan birinchisi, tomonlarning o‘zaro ta’siri elektron hukumatni amalga oshirishning samarali siyosatini ishlab chiqish uchun turli nuqtai nazar va tajribalarni birlashtirishga imkon beradi.

Zarurlikning ikkinchi sababi elektron hukumatning davlatning fuqarolar va biznes bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash istagi bilan bog‘liq.

Uchinchi sabab, hamkorlikni kuchaytirish va muvofiqlashtirishni takomillashtirish zarurati bilan izohlanadi, bu ko‘pincha davlat organlarining tashkiliy tuzilishi va jarayonlarini o‘zgartirishni talab qiladi.

Texnik ekspertiza ham elektron hukumatni joriy etishning ajralmas qismidir. Texnik ekspertlarning ishtiroki texnik infratuzilmani samarali rivojlantirish va amalga oshirishga yordam beradi, shuningdek ma’lumotlar xavfsizligi va himoyasini ta’minlaydi. Bunday mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlik texnik muammolarni oldini olishga va elektron davlat xizmatlarining samarali ishlashini ta’minlashga yordam beradi.

Elektron hukumatni joriy etish jarayonini amalga oshirishda ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muhimligining navbatdagi sababi o'qitish va keng xabardorlik zarurati bilan bog'liq.

Dissertant tomonidan elektron o'zaro ta'sir ko'pincha ma'lumot almashish bilan aniqlanadi, degan xulosa ilgari surilgan. Shu bilan birga, elektron hamkorlik nafaqat AKTdan foydalangan holda axborot almashish, balki AKTdan foydalanishda elektron hamkorlik subyektlarining huquqlari, majburiyatlari va manfaatlarini amalga oshirishga asoslangan kengroq jarayondir.

Muallifning ta'kidlashicha, Qoraqalpog'istonda elektron hukumatni joriy etish bir qator muammolarga duch kelmoqda, ularni saqlab qolish elektron hukumatni joriy etishga to'sqinlik qiladi. Asosiy sabablarni aniqlash uchun qonunchilik bazasi va elektron hukumatning respublikadagi hozirgi holatini ilmiy tahlil qilishdan tashqari, so'rov, intervyu, anketa kabi empirik tadqiqot usullari qo'llanilgan. Ularni o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston aholisining turli qatlamlari, yoshi va tumanlaridan (Nukus, Beruniy, Qo'ng'iroq, Chimboy tumanlari) har bir tuman va Nukus shahridan 200 kishidan iborat guruhlar shakllantirildi. Savollar quyidagi jihatlarni aniqlash maqsadida tuzilgan: my.gov.uz Internet sayti haqida aholining xabardorligi darajasi aniqlash, BMTning elektron hukumatning xalqaro reytingidagi O'zbekistonning mavqei, umuman elektron hukumatning tushunchasi to'g'risida bilim darajasi va boshqalar. So'rovlar tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi, bu o'z navbatida Qoraqalpog'istonda elektron hukumatni samarasiz joriy etishning asosiy tendentsiyalarini aniqlash va vaziyatni yaxshilash bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Bunday sabablar orasida aholining aksariyati elektron hukumatning mohiyatini tushunmaslik va elektron xizmatlardan foydalanish tajribasining yetishmasligi, elektron xizmatlarga bo'lgan ishonchning pastligi mavjud. Ba'zi fuqarolar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va elektron tranzaksiyalar xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlar tufayli elektron davlat xizmatlariga ishonmaydilar va shuning uchun ham ushbu usulni yanada ishonchli deb hisoblab, o'z muammolarini to'g'ridan-to'g'ri tashrif buyurish orqali hal qilishni afzal ko'rishadi.

Shuningdek, muallif tomonidan ushbu tadqiqot ish doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga o'zlarining elektron xizmatlarini taqdim etadigan davlat veb-saytlarining monitoringi olib borilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim davlat organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish natijalari hozirgi kunda asosan idoralararo xarakterga ega bo'lib, ichki muammolarni hal qilishga qaratilgan, bu idoralararo hamkorlikni sezilarli darajada yaxshilamagan va yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirishga zarurat mavjud. Ilgari shakllangan davlat axborot tizimlari va resurslari turli xil platformalar va texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan va ulardagi ma'lumotlar boshqa davlat organlari uchun tezkor foydalanish uchun qulay emas, bu amalda idoralararo ma'lumot almashishda vaqtni sezilarli darajada kechiktirishga, turli tizimlar va ma'lumotlar bazalarida ma'lumotlarni ko'p to'plash va takrorlashga olib keladi. Ushbu tendentsiyani hisobga olgan holda, hozirda davlat organlari, shuningdek

yuridik va jismoniy shaxslar bilan davlat xizmatlarini ko'rsatishda o'zaro munosabatlarning elektron shakllarining huquqiy ahamiyati, ishonchliligi va axborot xavfsizligini ta'minlaydigan yagona texnologik infratuzilmani shakllantirish ishlari boshlangan.

Dissertantning ta'kidlashicha, Qoraqalpog'iston Respublikasining aksariyat davlat organlarida AKT sohasida markazlashtirilgan ma'lumotlar bazalari, malakali kadrlar mavjud emas. Qayd etilgan salbiy omillarni bartaraf etish maqsadida «Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumat» tizimi infratuzilmasini rivojlantirish choralari puxta o'ylab ko'rishni taklif qiladi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining shaffofligi, ochiqligi va ishonchliligini yanada ta'minlashga, ularning mamlakat aholisi bilan o'zaro munosabatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumatni rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish hukumat va hokimiyat organlarining sa'y-harakatlarini talab qiladi, masalan:

- O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron imzo va elektron xizmatlardan foydalanishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumatni rivojlantirish sohasidagi dasturlarning bajarilishini nazorat qiluvchi va uning samaradorligini baholaydigan komissiya tuzish;

- elektron hukumat infratuzilmasini rivojlantirish va aholini elektron xizmatlardan foydalanishga o'rgatish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish;

- elektron xizmatlardan foydalanish jarayonida fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish choralari kuchaytirish.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **«Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumatni rivojlantirish istiqbollari va uni tartibga solishni optimallashtirish yo'llari»** deb nomlangan bo'lib, uch paragrafdan iborat.

Ushbu bobda elektron hukumatni amalga oshirish va raqamlashtirish davrida ommaviy ma'lumotlardan foydalanishni huquqiy tartibga solish doirasida inson kapitali rivojlanishining tashkiliy-huquqiy jihatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot doirasida ommaviy axborotning huquqiy jihatlari o'rganish va uning tarkibiy qismlarini umumlashtirish, shuningdek, mamlakat, qonunchilik va tashkilotlarning siyosatiga qarab farq qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning oshkoraligini aniqlash mezonlari belgilangan.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, huquqiy tartibga solishni doimiy ravishda takomillashtirish va uni yangi muammolar va tendentsiyalarga moslashtirish jamiyat oldida turgan vazifalarni samarali hal etish uchun juda zarurdir. Bunday holda, ommaviy axborot sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish quyidagi choralarni ko'rishni talab qiladi:

- ommaviy axborotning yagona reestrini yaratish;

- axborotni majburiy e'lon qilish tartibini joriy etish;

- ommaviy axborotdan foydalanish huquqini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini joriy etish;
- elektron hukumatni rivojlantirish.

Shu bilan birga, muallif elektron hukumatning ommaviy axborotni olish qulayligi uchun asosiy afzalliklarini ta'kidlaydi, masalan:

- axborotga tez va qulay kirish;
- hujjatlarni qisqarttirish;
- taqdim etilayotgan axborot sifatini oshirish;
- oshkoralik va ochiqlikni oshirish;
- hukumat samaradorligini oshirish;

Raqamlashtirish davrida ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish fuqarolarning shaffofligi, javobgarligi va huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu turli xil manfaatlar va ehtiyojlarni hisobga olishni talab qiladigan murakkab muammo. Axborotning mavjudligi va maxfiyligi o'rtasidagi muvozanatni, shuningdek fuqarolarni ularning manfaatlar va huquqlariga zarar etkazishi mumkin bo'lgan yolg'on va noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatishdan himoya qilishni ta'minlaydigan yangi huquqiy hujjatlar va siyosatlarni ishlab chiqish zarur. Yangi huquqiy hujjatlar va siyosatni ishlab chiqishda ommaviy axborotdan foydalanish huquqi ko'plab xalqaro va milliy qonunlarda mustahkamlangan fuqarolarning asosiy huquqlaridan biri ekanligini hisobga olish kerak. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati va tashkilotlari axborotdan foydalanishni tartibga solishda ushbu tamoyilga rioya qilishlari va etarli asoslarsiz axborotdan erkin foydalanishni cheklamasliklari zarur.

